

AUDIOVIZUAL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING FOLKLOR MATERIALLARINI TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ ПОНИМАНИЯ ФОЛЬКЛОРНЫХ МАТЕРИАЛОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

METHODOLOGY FOR DEVELOPING PRIMARY SCHOOL STUDENTS' COMPETENCE IN UNDERSTANDING FOLKLORE MATERIALS BASED ON AUDIOVISUAL TECHNOLOGIES

Bazarbayeva Zuxra Abdirashitovna

Nukus davlat pedagogika institute, magistrant

bazarbaeva.zukhra@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining folklor materiallarini tushunish kompetensiyasini audiovizual ta'lim texnologiyalari orqali rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda audiovizual ta'lim texnologiyalarining o'quvchilarning folklor matnlarini idrok etish, tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, folklor materiallarini o'qitishda audiovizual vositalardan foydalanishning pedagogik ahamiyati asoslangan.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, folklor materiallari, audiovizual texnologiyalar, tushunish kompetensiyasi, matnni idrok etish, tahlil qilish.*

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития у младших школьников компетенций по пониманию фольклорных материалов посредством аудиовизуальных образовательных технологий. В исследовании анализируются возможности аудиовизуальных образовательных технологий в развитии у учащихся навыков восприятия, понимания и анализа фольклорных текстов. Также обоснована педагогическая значимость использования аудиовизуальных средств при обучении фольклору.

Ключевые слова: *фольклор, устное народное творчество, начальное образование, аудиовизуальные технологии, компетенция, визуальная память, эмоциональный интеллект.*

Abstract: This article examines the development of primary school students' competence in understanding folklore materials through audiovisual educational technologies. The study analyzes the potential of audiovisual educational technologies for developing students' skills in perceiving, understanding, and analyzing folklore texts. It also substantiates the pedagogical significance of using audiovisual tools in teaching folklore materials.

Keywords: *primary education, folklore materials, audiovisual technologies, comprehension competence, text perception, analysis.*

Kirish. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi, xususan, matnni o'qish, mazmunini anglash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish O'zbekiston ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Xalqaro baholash dasturlarida, jumladan, Progress in International Reading Literacy Study (PIRLS) tadqiqotlarida o'quvchilarning matnni tushunish kompetensiyasiga alohida e'tibor qaratilishi ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi [8]. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinflarda xalqimizning boy ma'naviy-madaniy merosini aks ettiruvchi folklor materiallarini audiovizual ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish o'quvchilarning matn mazmunini anglash, obrazlarni idrok etish va axborotni xotirada saqlash imkoniyatlarini kengaytiruvchi samarali metodik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Mazkur masala davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga qadar O'zbekistonning PISA xalqaro baholash dasturida dunyoning yetakchi 30 ta davlati qatoriga kirishini ta'minlash strategik maqsad sifatida belgilangan [1]. Olingan natijalar strategik vazifa ta'lim sifatini xalqaro mezonlar asosida takomillashtirish, jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan samarali metodik yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi.

Shuningdek, boshlang'ich sinflarda xalqimizning boy madaniy va ma'naviy merosini o'zida aks ettiruvchi folklor materiallarini o'qitish metodikasini audiovizual ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-metodik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning matnni o'qish va tushunish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim davr bo'lib, bu jarayonda folklor materiallari samarali didaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Biroq xalq og'zaki ijodini o'qitishning an'anaviy metodikasi ko'proq matn bilan ishlashning reproduktiv shakllariga, ya'ni janr xususiyatlarini anglash, namunaga asoslangan holda tinglash va qayta hikoyalashga yo'naltirilgan bo'lib, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axborotni qabul qilish va o'zlashtirishning zamonaviy xususiyatlarini yetarli darajada hisobga olmaydi [4].

Kichik maktab yoshi 6–10 yosh davrini qamrab olib, bolaning fiziologik, psixologik va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur davrda o'quvchilarda mustaqillik, mas'uliyat va mehnatsevarlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanib, yetakchi faoliyatning o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tishi kuzatiladi.

Shu bilan birga, ushbu yosh davri bolaning yangi ijtimoiy muhit va ta'lim talablariga moslashishi bilan bog'liq muayyan psixologik murakkabliklar bilan ham tavsiflanadi. Xorijiy tadqiqotchilar Avetisyan Mariana, Stepanyan Narine va Konjoyan Hasmik 7 yosh davrining murakkab va o'ziga xos rivojlanish bosqichi ekanligini ta'kidlaydilar [2].

Bu davridagi o'quvchilarga obrazli tafakkurning ustunligi, yuqori emotsional qabul qiluvchanlik hamda ko'rgazmali va o'yin elementlariga asoslangan faoliyatga ehtiyoj xosdir. Shu bois ta'lim jarayonida audiovizual vositalardan foydalanish o'quv materialini idrok etish va o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, audiovizual ta'lim jarayonida multimedia kontentidan foydalanish o'quvchilarning folklor matnlari mazmunini chuqurroq anglashiga, undagi personajlarning obrazi, xatti-harakati va xarakter xususiyatlarini yaxshiroq idrok etishiga imkon yaratadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda folklor materiallarini o'qitishda audiovizual ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida ilmiy-metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik kuzatish va metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida audiovizual ta'lim texnologiyalarining mazmuni, ularning boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mosligi hamda folklor materiallarini o'zlashtirish jarayonidagi didaktik imkoniyatlari o'rganildi.

Audiovizual ta'lim texnologiyalari (lot. *audire* – eshitish va *visualis* – ko'rish) texnik vositalarning alohida guruhi bo'lib, o'quv jarayonida keng qo'llaniladigan ko'rish va eshitish axborotlarini taqdim etishga mo'ljallangan ekranli va ovozli qo'llanmalarni o'z ichiga oladi.

Audiovizual ta'lim texnologiyalari tushunchasi pedagogik va metodik adabiyotlarda turlicha talqin etilgan bo'lib, mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini yoritishda A.N. Shchukin, E.G. Azimov va T.P. Voronina tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. A.N. Shchukin va E.G. Azimov tomonidan tuzilgan metodik terminlar va tushunchalar lug'atida audiovizual ta'lim vositalari ovozli hamda vizual axborotlarni taqdim etishga xizmat qiluvchi texnik qurilmalar sifatida izohlangan [7]. T.P. Voronina esa audiovizual vositalarni o'quv jarayonida ko'rish va eshitish axborotlarini yetkazishga mo'ljallangan ekranli va tovushli vositalarni o'z ichiga oluvchi o'qitishning texnik vositalari guruhi sifatida talqin etadi [6].

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlar tahlili vizual axborotning inson xotirasida saqlanishi va qayta tiklanishida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Xususan, vizual xotira hajmini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarda sinaluvchilar qisqa vaqt davomida 10 mingta fotosuratni ko'rgandan so'ng, ikki muqobil variant orasidan avval namoyish etilgan tasvirni 83 foiz aniqlik bilan to'g'ri tanlay olganligi aniqlangan [5].

Shuningdek, Brady T.F. va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, vizual xotirada nafaqat ko'plab obyektlarning tasvirlari, balki ularning alohida xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar ham yetarlicha batafsil saqlanadi [3].

Keltirilgan ilmiy natijalar audiovizual vositalar orqali folklor materiallarini taqdim etish o'quvchilarning matn mazmunini yaxshiroq idrok etishi, obraz va voqealarni aniqroq tasavvur qilishi hamda o'zlashtirilgan axborotni xotirada mustahkam saqlashiga yordam berishi mumkinligini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflarda folklor materiallarini o'qitishda audiovizual texnologiyalardan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

- ertaklarni animatsion shaklda namoyish etish. Bunday yondashuv o'quvchilarga ertak matnini tezroq va osonroq o'zlashtirish, undagi voqealar ketma-ketligini tasavvur qilish hamda qahramonlar obrazini ongida aniq gavdalantirish imkonini beradi;
- maqollarni audiovizual tasvirlar bilan izohlash. Mazkur usul o'quvchilarga maqol mazmunini aniqroq tushunib yetishga yordam beradi. Bunda abstrakt fikrlar konkret vizual obrazlar orqali ifodalanadi;
- xalq qo'shiqlarini jonli ovoz va vizual tasvirlar uyg'unligida namoyish qilish. Bunday yondashuv o'quvchilarning emotsional idrokini rivojlantirish, o'zini va atrofdagilarni tushunish, tinglash hamda hissiy munosabat bildirish ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlaydi;
- topishmoqlarni o'qitishda audiovizual vositalardan foydalanish. Bunda o'quvchilarning ko'rish va eshitish diqqati faollashadi, topishmoqda berilgan belgilarni ajratish, qiyoslash va ular asosida xulosa chiqarish orqali mantiqiy fikrlash rivojlanadi.

Tadqiqot natijalari audiovizual ta'lim texnologiyalaridan foydalanilgan darslarda quyidagi pedagogik samaralarga erishish imkoniyati mavjudligini ko'rsatdi:

- o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- matnni idrok etish va tushunish kompetensiyasi rivojlanadi;
- matn mazmunini eslab qolish ko'nikmasi kuchayadi;
- o'quvchilarning ko'rish va eshitish diqqati rivojlanadi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, audiovizual texnologiyalardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining folklor materiallarini qabul qilish va tushunish jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi. Buning asosiy sababi audiovizual vositalar orqali axborotning bir vaqtning o'zida ko'rish va eshitish kanallari orqali taqdim etilishidir.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning obrazli tafakkuri, emotsional qabul qiluvchanligi va ko'rgazmali faoliyatga ehtiyoji hisobga olinganda, folklor materiallarini audiovizual shaklda taqdim etish matn mazmunini konkretlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, ertak qahramonlarining harakatlari, tashqi ko'rinishi va

emotsional holatini vizual namoyish qilish o'quvchilarning personaj obrazini yaxshiroq anglashiga sharoit yaratadi.

Maqol va topishmoqlarni audiovizual materiallar bilan uyg'unlashtirish esa ularning mazmunini konkretlashtirish imkonini beradi. Bu holat kichik yoshdagi o'quvchilarning abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali o'zlashtirish xususiyati bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, audiovizual texnologiyalardan foydalanishda ularning faqat ko'rgazmalilik vazifasi bilan cheklanib qolmasligi muhim. Audiovizual material o'quvchini matn mazmunini tahlil qilish, personajlarga baho berish, voqealar o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va xulosa chiqarishga yo'naltirishi lozim. Shundagina texnologiya ta'limning tashqi vositasi emas, balki matnni tushunish kompetensiyasini rivojlantiruvchi metodik vositaga aylanadi.

Shu nuqtayi nazardan, folklor materiallarini audiovizual texnologiyalar asosida o'qitish jarayonini "qabul qilish — anglash — tahlil qilish — xulosa chiqarish" izchilligi asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv o'quvchining ko'rish va eshitish faoliyatini bilish faoliyati bilan uyg'unlashtirib, matnni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda folklor materiallarini o'qitishda audiovizual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning matnni tushunish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion metodik yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Audiovizual ta'lim texnologiyalarining ahamiyati, avvalo, ularning kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mosligi bilan belgilanadi. O'quvchilar diqqatining nisbatan beqarorligi, ma'lumotlarni obrazli va ko'rgazmali shaklda qabul qilishga moyilligi hisobga olinganda, folklor materiallarini eshitish va ko'rish orqali qabul qilish matn mazmunini tezroq anglash va mustahkam o'zlashtirish imkonini beradi.

Folklor materiallarini — ertak, maqol, xalq qo'shig'i va topishmoqlarni — audiovizual vositalar orqali taqdim etish o'quvchilarning qiziqishini oshirish, matn mazmunini idrok etish va tushunish, obrazlarni anglash, axborotni xotirada saqlash hamda ko'rish va eshitish diqqatini rivojlantirish uchun pedagogik imkoniyatlar yaratadi.

Xullas, audiovizual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining folklor materiallarini tushunish kompetensiyasini rivojlantirishning samarali metodik vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Mazkur yondashuv boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish, milliy folklor merosini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida o'zlashtirish va o'quvchilarning matn bilan mustaqil ishlash faoliyatini kuchaytirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 1. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son. <https://lex.uz>.
2. 2. Avetisyan, Mariana, Stepanyan Narine, Konjoyan Hasmik. Attention features in preschool and younger school age//Main Issues of Pedagogy and Psychology. Vol.12 No.1 (2025). – P.31-32.
3. 3. Brady T.F. et al. Visual long-term memory has a massive storage capacity for object details //Proceedings of the National Academy of Sciences. - 2008. - Vol. 105. - No. 38. – P. 14325-14329.
4. 4. Konik.O.G. Osnovi formirovaniya navikov smislovogo chteniya u mladshix shkolnikov v protsesse izucheniya narodnix skazok//Problemi sovremennogo pedagogicheskogo obrazovaniya. – Sbornik nauchnix trudov: –Yalta: RIO GPA, 2019. – Vip. 63. – Ch. 2. S.236.
5. 5. Standing L. Learning 10000 pictures // The Quarterly Journal of Experimental Psychology. – 1973. - Vol. 25. - No. 2. – P. 207-222.
6. 6. Voronina T.P. Obrazovaniye v epoxu novix informatsionnix texnologiy / T.P. Voronina V.P. Kashitsin, O.P. Molchanova. – Moskva: Informatika, 2015. – 220 s.
7. 7. Shukin, A.N. Noviy slovar metodicheskix terminov i ponyatiy (teoriya i praktika obucheniya yazikam): slovar / A.N. Shukin, E.G. Azimov – Moskva: IKAR, 2009. – 448 s.
8. 8. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/05/17/pirls>.